

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FAKULTETI
IQTISODIYOT KAFEDRASINING 19- SONLI YIG'ILISH
BAYONNOMASIdan ko'chirma

17.04.2024 y.

Termiz shahri

Yig'ilish raisi: dots. A. Mamadjanova

Yig'ilish kotibi: o'qit. X.Rashidova

Qatnashdilar: O'quv ishlari bo'yicha prorektor- f.f.f.d., A.Esanov, Xalqaro ishlar bo'yicha prorektor- i.f.d. (DSc), Sh.Otamurodov, fakultet dekani - Sh.Yarmatov, kafedra mudiri - dots., T. Mamadjanova, dots., A.Absamatov, dots., A.Avliyoqulov, i.f.n., O.Ro'ziyev, i.f.f.d., M.Amonov, o'qituvchilar – N.Eshqulova, Sh.Haydarova, I.Saparov.

K U N T A R T I B I :

3. Kafedra dotsenti v.b. O.Ruziyevning ochiq darsi muhokamasi.

ESHITILDI: Kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig'ilish raisi, kafedra mudiri dots., T. Mamadjanova so'z olib, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ahamiyatini ta'kidladi, bunda asosiy e'tibor ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilganligini, bu borada nazoratni kuchaytirish, natijalarni tahlil qilish va yutuqlarni ommalashtirish lozimligi qayd etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari, shuningdek, universitet rektori buyruqlarining to'liq ijrosi muhimligi, ushbu topshiriqlar kafedra o'qituvchilari tomonidan o'z vaqtida bajarilishi zarurligini ta'kidladi.

Kun tartibidagi 3-masalalar yuzasidan o'quv ishlari bo'yicha prorektor i.f.f.d., A. Esanov so'zga chiqib, kafedraning o'qituvchilariga ochiq dars o'tkazishdan maqsad ta'lim jarayonida sifatni oshirish, o'qituvchilarning dars o'tish mahoratini ko'rsatish, talabalar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish imkoniyati borligini ta'kidladi. Shuningdek, bu darslar ta'lim jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish va boshqa o'qituvchilar bilan tajriba almashishga xizmat qilishi, shu bilan birga, o'quv-tarbiya jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo'naltirilishini aytib o'tdi. O'z so'zida A. Esanov kafedra dotsenti v.b. O.Ro'ziyevning 1-bosqich iqt-123 guruh iqtisodiyot mutaxassisligi magistrilariga 17.04.2024 yildagi "Ishlab chiqarishni tashkil etish" fanidan "Monopoliya va tartibga solish" mavzusida o'tgan ochiq darsi haqida to'xtalib o'tdi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor f.f.f.d., A. Esanov O.Ro'ziyevning ochiq ma'ruza mashg'uloti o'z vaqtida boshlanib, yo'qlama qilinganligi, mavzusi va uning rejasi tanishtirilganligi, dars davomida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'qitish vositalari – elektron doska va slaydlardan unumli foydalanilganligi, darsning tashkiliy qismi hamda me'yoriy hujjatlar mavjudligi to'g'risida o'z fikr va mulohazalarini bildirdi. Shuningdek, kafedra o'qituvchilariga ochiq dars o'tish tartibi bo'yicha kerakli taklif va tavsiyalar berib o'tdi.

Dots., T.Mamadjanova Oybek Ro'ziyevning ochiq ma'ruza mashg'uloti reja asosida olib borilganligi va o'qituvchi tomonidan yoritib berishga harakat qilinganligi, shuningdek, ba'zi bir kichik kamchilliklari mavjudligi, jumladan, rivojlangan davlatlar tajribalari kengroq tushuntirilishi to'g'risida fikr bildirdi.

Shundan so'ng, O.Ro'ziyevning "Ishlab chiqarishni tashkil etish" fanidan "Monopoliya va tartibga solish" mavzusida o'tgan ochiq darsi yuzasidan kafedra professor-o'qituvchilaridan i.f.n., A.Absamatov va i.f.f.d., M.Amonovlar so'zga chiqib, o'zlarining ochiq dars yuzasidan ijobiy fikrlarini bildirib, taklif hamda tavsiyalarini berishdi. O.Ro'ziyevning ochiq ma'ruza mashg'uloti ijobiy baholandi.

Yig'ilish davomida kun tartibidagi masalalar yuzasidan kafedra mudiri dots., T. Mamadjanova o'quv jarayonida dars sifati va mazmuniga e'tibor qaratish, dars jarayonida turli zamonaviy pedagogik usullardan, jumladan aqliy hujum, blits-so'rov kabi usullardan samarali foydalanilgani haqida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, qat'iy ijro intizomiga rioya qilish, ya'ni har bir o'qituvchining o'z vaqtida ishga kelib ketishlari haqida ta'kidlab o'tdi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan kafedra yig'ilishi

Q A R O R Q I L A D I:

3.1 Kafedra dotsenti v.b. i.f.n., O.Ro'ziyevning "Ishlab chiqarishni tashkil etish" fanidan "Monopoliya va tartibga solish" mavzusida o'tgan ochiq darsi yuzasidan kafedra a'zolari va ochiq darsda ishtirok etgan professor-o'qituvchilarining fikr-mulohazalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3.2 Ochiq dars OTM Nizomi talablariga muvofiq zamonaviy pedagogik usullardan foydalanilgan holda o'tildi deb baholansin.

Yig'ilish raisi:



dots., T.Mamadjanova

Yig'ilish kotibi:

o'q., X.Rashidova